

“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

30-mavzu: “Kitobxonlik”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarga kitob mutolaasi, badiiy va ilmiy ommabop asarlarni ko‘p o‘qishning shaxsiy yuksalish, kelgusidagi kasb va hunar egallashdagi ijobiy ta’sirini tushuntirish. Kitob bilim oluvchi asosiy vosita ekanligini anglatish.

Annotatsiya. Mazkur darsda 9-11-sinf o‘quvchilariga mutolaaning foydasi, ilmiy va badiiy kitobxonlikning fikr, nutq, dunyoqarash, tengqurlari va o‘zidan kattalar bilan muomala madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida tushuncha beriladi. Dars davomida o‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan badiiy asar mazmuni va bu asarlarning kishi kamolotidagi ahamiyati haqida mulohaza yuritadilar.

Asosiy g‘oya:

Har bir mutolaa qilingan ilmiy yoki badiiy asar o‘quvchi kelajagini porloq qilishga sabab bo‘lishi mumkin. Kitoblar bizni ijodkorlik, sabr-toqat, yangi bilim va tajribalarga o‘rgatadi.

Metapredmet yondashuv:

Tarix: O‘quvchilar tarixiy voqealar va mashhur shaxslar misolida kitobxonlikning ahamiyatini tushunib oladilar.

Adabiyot: Badiiy kitoblarda berilgan qahramonlar obrazini tahlil qiladilar, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Tarbiya: Kitoblar orqali teran o‘ylash, mulohaza yuritish, tafakkur va tahlil qilish fazilatlarini shakllanadi, degan xulosa kelishadi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan shakl: bilim beruvchi suhbat, o‘yin elementlari, videolavha va qo‘shimcha materiallar.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi qo'lidagi oddiy qalam va bir varaq qog'ozni baland ko'taradi.

O'qituvchi: Ko'rib turganingiz oddiy qalam va qog'oz. Ularni har kuni ko'ramiz, ishlatamiz, biz uchun o'quv quroli, xolos. Ammo shu predmetlar insoniyat tarixida katta o'zgarishlar qilganini bilasizlarmi? Aynan ular paydo bo'lgach, fikr yozilgan, g'oya shakllangan, qarorlar hujjatlashtirilgan.

Siz oxirgi marta qachon o'z fikringizni qog'ozga yozib ko'rdingiz?

O'quvchilar javobi tinglanadi.

O'qituvchi: Yozish uchun avval fikr kerak. Fikr esa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U shakllanadi, tarbiyalanadi. Bu jarayonda eng kuchli manbalardan biri mutolaa, ya'ni kitobdir.

Kitob insonni nimasi bilan o'zgartiradi? Nega ayrimlar, bir xil sharoitda bo'lsa-da, miyasi boshqalardan tezroq o'sadi, chuqurroq fikr yuritadi, o'ziga ishonch bilan gapiradi? Bugun shu mavzuda suhbatlashamiz.

Keling, avvaliga kichik bir o'yin o'ynaymiz. O'yinimiz nomi: **“Tezkor javob va asosli fikr”**.

Savol: *“Nega ayrim odamlar hayotda tez muvaffaqiyatga erishadi?”*

Tez javob bering, xayolingizga kelgan birinchi fikrni bir-ikki so'z bilan ayting.

O'quvchilar tez-tez javob beradi: omad, pul, tanish-bilish, bilim...

O'qituvchi: Endi esa shu savolga asoslantirib, kuchli argumentlar bilan 2-3 gapda javob beramiz.

Muhokama davom etadi, javoblar chuqurlashadi.

O'qituvchi: Farqni sezdingizmi? Tez javob berish oson. Lekin fikrni asoslash tafakkur darajasini bildiradigan jarayon. Tafakkurni rivojlantiradigan eng kuchli vositalardan biri esa kitobdir.

Kitob sizga shunchaki ma'lumot bermaydi. U sizni o'ylashga, solishtirishga, xulosa chiqarishga majbur qiladi. Natijada inson nafaqat ko'proq biladi, balki boshqacha fikrlaydi.

Bugun Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarning kitobxonligi masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani bejizga emas. Hurmatli Prezidentimiz shunday deganlar:

“Hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi.”

Bu yerda bir muhim tushuncha bor: “ma'naviy immunitet”. Ya'ni bu insonni turli ta'sirlardan himoya qiladigan ichki mustahkamlikdir. Bu mustahkamlik aynan mustaqil fikr bilan shakllanadi. Mustaqil fikr esa mutolaa orqali paydo bo'ladi.

Hozir shu mavzuga oid qisqa videoni tomosha qilamiz. Unda bugungi kunda kitobxonlikni rivojlantirish yo‘nalishida qanday ishlar amalga oshirilayotgani haqida so‘z boradi.

Vizual kontent

Kitobxonlar – davlatimiz e‘tiborida!

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/519

O‘qituvchi: Videodan ko‘rinib turibdiki, kitob o‘qish uchun bugun hamma imkoniyatlar va sharoitlar bor. Bu masalaga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda. Sizlardan faqat kitob o‘qish so‘rallyapti. Ishonamanki, hammangizda kitobxonlik tanlovlarini yutishga yetarli salohiyat bor.

Bugungi darsda biz kitobning asl kuchini kashf etamiz. “Kitob insonning fikrini, nutqini, dunyoqarashini qanday o‘zgartiradi va eng muhimi, uning kelajakdagi muvaffaqiyatiga qanday ta’sir qiladi?” degan savolga javob qidiramiz.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O‘qituvchi doskaga “FIKR” so‘zini yozadi. Uning ostiga yana uchta so‘z qo‘shadi: nutq – qaror – muvaffaqiyat.

O‘qituvchi: E‘tibor beringlar, bu to‘rtta tushuncha bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Inson qanday fikrlasa, shunday gapiradi. Qanday gapirsa, shunday qaror qiladi. Qanday qaror qilsa, shunday yashaydi. Demak, masalaning ildizi qayerda ekan? Albatta, fikrda!

Fikr qanday shakllanadi?

Qisqa javoblar olinadi.

O‘qituvchi: Eng kuchli yo‘llardan biri – mutolaa.

Doskaga yozadi.

1. Kitobxonlik va tafakkur

O‘qituvchi: Tafakkur so‘zi va fikr so‘zi bir o‘zakdan kelib chiqqan. Ya’ni tafakkur – bu fikrlash degani.

Kitob o‘qiyotganingizda siz shunchaki asar syujetini kuzatmaysiz, balki uni xayolda tahlil qilasiz. Qahramon nega bunday yo‘l tutdi? Boshqacha yo‘l tutsa nima bo‘lardi? Muallif bu bilan nima demoqchi? Shu kabi savollarga miyangiz javob izlaydi, topadi va xulosa qiladi. Ba‘zan o‘qigan kitoblaringizning mazmuni, qahramonlar ismi, hatto muallifi ham esingizdan chiqib qolishi mumkin. Lekin shu kitobni o‘qishdan olgan xulosalaringiz sizning dunyoqarashingizni shakllantiradi, axloqiy me‘yorlaringizni belgilaydi, sizni yaxshi va sifatli insonga aylantiradi.

Bu jarayonda miyangiz ishlaydi. Siz sabab-oqibatni bog‘laysiz. Xulosa chiqarasiz. Eng muhimi – mustaqil fikr yuritishni o‘rganasiz.

Xo'sh, o'ylab ko'ring-chi, agar sizga bir masala berilsa, uni kim tezroq hal qiladi – ko'proq tayyor video ko'rgan odammi yoki o'qib, tahlil qilib xulosa chiqarishga o'rgangan odammi?

Muhokama.

O'qituvchi: Albatta, kitob o'qigan odamning masalalarni tez va to'g'ri yechishi ehtimoli yuqori. Chunki kitob – bu fikrlash mashqi. Qanchalik ko'p o'qisangiz, shunchalik tez va chuqur fikr yurita boshlaysiz va nutqingiz ravon bo'ladi.

Doskaga yozadi.

2. Kitobxonlik va nutq madaniyati

O'qituvchi: Bir vaziyatni tasavvur qiling: siz muhim joyda o'z loyihangizni yoki pozitsiyangizni himoya qilishingiz kerak. Masalan, grant yutish yoki ishga kirish uchun suhbat, imtihon yoki loyiha taqdimotidasiz. Sizning raqiblaringiz ham bor, raqobatli muhit shakllangan.

Xo'sh, raqobatda kim yutadi – fikrini aniq, ravon va ishonch bilan ifodalay olgan odammi yoki gapini topolmay, to'xtab-to'xtab, chaynalib qoladigan odammi?

O'quvchilar javobi.

O'qituvchi: Kitob o'qigan insonning nutqi boy bo'ladi. U kerakli so'zni topadi, fikrini aniq va chiroyli, tasviriy ifodalarga boy tarzda izohlab bera oladi, sinonimlardan ko'p foydalanadi. Bu esa uning ovozi va xatti-harakatlariga ishonch beradi.

Aslida nutq – bu sizning ichki dunyongizning ko'zgusi. Ichkarida nima bo'lsa, tashqariga shu chiqadi. Kitob esa ichkarini, ya'ni dunyoqarashingizni boyitadi.

Hozir sizlarga adabiyotshunos olim, professor Bahodir Karimovning kitoblar haqidagi fikrlarini qo'yib beraman. Diqqat bilan tomosha qiling. Olimning fikrlari va uni ifoda qilayotgan nutqi naqadar ravshan va ravonligi yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi.

Vizual kontent

Bahodir Karimov: “Kitob o'qilmagan kun – yashalmagan umr”

<https://youtu.be/C3e5gicBIow>

Video muhokama qilinadi (2 daqiqa)

O'qituvchi doskaga yozadi.

3. Kitobxonlik va dunyoqarash

O'qituvchi: Kitob sizni o'zingiz bormagan manzillar, ko'rmagan insonlar, guvohi bo'lmagan voqealar bilan tanishtiradi. Siz boshqa davrlarga borasiz, boshqa odamlar bilan “yashaysiz”, ularning qarorini tushunasiz.

Hozir ayrim asarlarning qahramonlari tilga kirgan videoni sizga qo'yib beraman. Ushbu video orqali tasavvuringiz jonlanadi. Videoni tomosha qilgach, o'zingiz ham sevimli qahramonlaringiz bilan suhbatni bir tasavvur qilib ko'ring. Ularga nima degan bo'lar edingiz, nimalarni so'rar edingiz va savollaringizga qanday javob olishni istar edingiz.

Vizual kontent

Siz ularni taniysiz...

<https://youtu.be/3d7FhpXV8zo>

O'qituvchi: Masalan, badiiy asar o'qigan odam boshqalarni tezroq tushunadi. Chunki u kitoblar orqali turli xarakterlarni ko'rib, turli vaziyatlarni his qilgan-da.

Ilmiy kitob esa sizga fakt beradi, mantiqiy fikrlashingizni rivojlantiradi.

Natijada Siz kengroq fikrlaysiz. Bir masalaga turli tomondan qaray boshlaysiz. Bu esa o'z navbatida sizni xushmuomala insonga aylantiradi, "yumshoq kuch"ingizni rivojlantiradi.

Doskaga yozadi.

4. Kitobxonlik va muomala madaniyati

O'qituvchi: Odamlar bilan muloqot qilish ham bir san'at. Har kim gapira oladi, lekin hamma ham to'g'ri gapira olmaydi.

Kitob o'qigan inson esa boshqalarni eshitishni biladi, fikrini hurmat bilan bildiradi, hissiyot bilan emas, asos bilan gapiradi.

Shuning uchun ham bunday inson tengqurlari orasida ajralib turadi. Jamiyatda hurmat qozonadi. Unga quloq solishadi. U yetakchilik qiladi, atrofdagilarga, jamoaga ta'sir o'tkazuvchi influenserga aylanadi. Bu esa yarim muvaffaqiyat degani.

Doskaga yozadi.

5. Kitob va muvaffaqiyat

O'qituvchi: Sizningcha, bugungi kunda ish beruvchilar xodimni ishga qabul qilishda nimaga ko'proq e'tibor beradi? Faqat diplomga qaraydimi yoki fikrlay oladigan, muammo yecha oladigan odamlarni ishga qabul qiladimi?

O'quvchilarning fikrlari tinglanadi.

O'qituvchi: Tahlil qilish, muloqot qilish, qaror qabul qilish – bular zamonaviy dunyoda eng muhim ko'nikmalardir. Bu ko'nikmalarni aynan kitob rivojlantiradi. Shuning uchun ham dunyodagi ko'plab muvaffaqiyatli insonlar muntazam kitob o'qiydi. Masalan, AQShning sobiq prezidenti Barak Obama mutolaani odat qilgan bo'lib, shunday deydi: **"O'qish – bu dunyoni boshqalarning ko'zi bilan ko'rish imkoniyatidir."**



Yoki buyuk basketbolchi LeBron Jeymsni olaylik. U nafaqat jismonan, balki aqlan ham o‘z ustida ishlaydi va kitob o‘qishni “aqliy mashq” deb ataydi.



Buyuk Britaniyaning afsonaviy Bosh vaziri Uinston Cherhill esa nafaqat kitob o‘qishni yaxshi ko‘rgan, balki asarlar yozgan va adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha Nobel mukofotini olgan.



Demak, kitob faqat bilim beruvchi manbagina emas, balki ustunlik beruvchi vosita, qanotdir. Ayniqsa, kelajakda mustaqil hayotga qadam qo‘yganingizda muvaffaqiyatli inson, doim g‘alaba qozonadigan muzaffar shaxs bo‘lmoqchi bo‘lsangiz, hozir ko‘p kitob o‘qing. Buning ortidan sizga albatta farovonlik keladi.

Doskaga yozadi.


6. Kitob va farovonlik

O‘qituvchi: Keling, juda oddiy zanjirni ko‘raylik:

Bilim → imkoniyat → to‘g‘ri qaror → natija → daromad

Moliyaviy savodxonlik ham kitobdan boshlanadi. Pulni boshqarish, riskni tushunish, imkoniyatni baholash – bularning barchasi bilim va tafakkurga bog‘liq.

Shuning uchun ham ko‘plab muvaffaqiyatli insonlar kitob o‘qishni kundalik odatiga aylantirgan. Masalan, Stiv Jobs ko‘p kitob o‘qigan, ayniqsa falsafa va dizayn haqida. Aynan shu sababli ham u yaratgan “Apple” brendi o‘z falsafasi va yuqori standartlariga ega. Buning ortidan Stiv Jobsga farovonlik keldi.



Suhbat: “Meni o‘zgartirgan kitob”

O‘qituvchi: Endi sizlarga navbat. Har kim o‘zi o‘qigan bir asarni eslaydi va quyidagi savollarga qisqa va aniq javob beradi.

Qaysi kitob?

Sizga nima berdi?

Sizning dunyoqarashingizda nimani o‘zgartirdi?

3-4 nafar o‘quvchi javob beradi.

O‘qituvchi: Xulosa o‘rnida shuni aytamanki, kitob har kimga har xil ta’sir qiladi. Lekin bitta umumiy jihati bor – u insonni o‘zgartiradi.

Shu o‘rinda yurtimizdagi eng katta, eng zamonaviy kitob maskani – Alisher Navoiy nomidagi kutubxonaga Mahliyo bilan birga videosayohat qilamiz. Marhamat, ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Yurtimizdagi eng tarixiy va eng yirik kutubxonadamiz

<https://youtu.be/Humu6MPdi8>

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi doskaga yana bir bor qaraydi, “FIKR” so‘zini ko‘rsatadi va mulohazali ohangda gap boshlaydi.

O‘qituvchi: Bugun biz muhim bir haqiqatni angladik: insonning muvaffaqiyati uning fikridan boshlanadi. Fikr esa o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. U shakllanadi. Uni shakllantiradigan eng kuchli vositalardan biri kitobdir.

Qisqa pauza.

O‘qituvchi: Kimdir kitob o‘qishni shunchaki xobbi deb o‘ylaydi. Aslida esa bu – o‘z ustida ishlash, o‘zini tarbiyalash jarayonidir. Bugun kitob o‘qimagan odam ertaga boshqalarning fikri bilan yashaydi.

Siz hozir dunyoqarashi shakllanayotgan avlodsiz. Bugun qanday odat boshlasangiz, ertaga o‘sha odatlar sizni boshqaradi. Shuning uchun bugundan boshlab yaxshi odatlar sari kichik, lekin kuchli qadamlar qo‘yamiz.

Men sizlarga bir chellenj taklif qilaman. Har biringiz bugundan boshlab 7 kun davomida kamida 50 bet kitob o‘qiysiz. Bu katta raqam emas. Kuniga 7-8 betdan to‘g‘ri keladi. Lekin muhim sharti bor: kitobni shunchaki o‘qimaysiz. Tahlil qilasiz, undagi muhim fikrlarni va xulosalarni yondaftarga qayd etasiz, eng ta‘sir qilgan joyini yozib qo‘yasiz. Keyingi darsda esa quyidagi savolga javob berasiz: *“Bu kitob menda nimani o‘zgartirdi?”*

Shu bilan darsimiz nihoyasiga yetdi. Xayr, salomat bo‘ling.